



# “TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

## ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo‘nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta‘lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e‘lon qilinadi.



**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY  
JURNALI**

**Bosh muharrir:**  
Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**  
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

**Dizayner:**  
Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba  
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi  
№ 066379- raqamli guvohnomasi  
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri  
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:  
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8  
"Times New Roman" garnitiruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 10 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan  
<https://scientific.tues.uz>  
web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**  
Surxondaryo viloyati,  
Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. eshbolta\_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. navruza\_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. nurillo\_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. muxiddin\_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy  
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,  
Termiz, O'zbekiston. oltiboy\_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. maqsuda\_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena\_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv\_urolova@tues.uz

# MUNDARIJA

## **G. E. TURAYEVA**

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

## **G.T. JUMAYEVA**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

## **O.Ch.XOLOV**

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

## **N.M. SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

## **B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV**

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

## **M.Y.MADIEVA**

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

## **S.Q. ESHBOYEVA**

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

## **N.N. SHODIYEVA**

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

## **K.Sh.OLTIBOYEVA**

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

## **U.A. TASHBAYEVA**

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

## **M.Y.MADIEVA**

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

## **R.D. NORQOBILOVA**

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

## **G'.A. MAMARAJABOV**

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

## **F.A. ABDURAZZOQOV**

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

## **A.Ch. QOSIMOV**

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

## **M.X. FAYZULLAYEVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

## **S.A. JABBOROVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

## **F. YORMATOV**

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari .....70

## **R. R. KHAMRAEVA**

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

## **I.H. JUMAYEV**

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

## **N.A. UMAROVA**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

## **I.B. QARSHIYEVA**

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dots.  
**p.f.f.d (PhD), Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi**  
E-mail: surayyoeshboyev@gmail.com

#### 4K YONDASHUV SAMARALI TA'LIM KAFOLATI

##### ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion yondashuvlarning tahlili, shuningdek, 4K yondashuv komponentlari mazmuni pedagogik tahlili, kollaboratsiya, hamkorlikda ishlash, kritik fikrlash tajribasini jamoaviy, o'zaro juftlik asosida muntazam oshirib borish metodikasi, shaxsiy va akademik tajribadan foydalangan holda kundalik turli vaziyatlarda qo'llay olish, kreativ yechimlar yaratish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish, o'zlashtirish samaradorligi haqidagi ma'lumotlar, amaliy tafsilotlar va ularni tahlil qila bilish, o'zlashtirish samarasi haqida ma'lumotlar yoritiladi.

**Tayanch so'zlar:** intellektual shaxs, tarbiyalash, nostandart fikrlash kollaboratsiya, workshop, kritik fikrlash, boshlang'ich ta'lim, o'quvchilar, ko'nikma, baholash, yondashuv, simulyatsiya, jamoada teskari aloqa, zamonaviy ta'lim muhiti, yondashuv.

##### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются инновационные подходы в современной образовательной среде, а также педагогический анализ содержания компонентов 4К-подхода, коллаборация, совместная работа, методика регулярного повышения опыта критического мышления на основе коллективного, взаимной пары, умение применять личный и академический опыт в различных повседневных ситуациях, умение создавать креативные решения, умение выбирать основные и анализировать их, информация об эффективности обучения, практические детали и умение анализировать их, информация об эффективности обучения.

**Ключевые слова:** интеллектуальная личность, воспитание, нестандартное мышление, коллаборация, workshop, критическое мышление, начальное образование, учащиеся, навыки, оценка, подход, симуляция, обратная связь в команде, современная образовательная среда, подход.

##### ABSTRACT

The article highlights the analysis of innovative approaches in the modern educational environment, as well as pedagogical analysis of the content of the 4C approach components, collaboration, collaborative work, the methodology of systematically improving critical thinking experience based on teamwork, mutual pairing, the ability to apply it in various everyday situations using personal and academic experience, the ability to create creative solutions, the ability to choose the main ones and analyze them, information about the effectiveness of assimilation, practical details and the ability to analyze them, information about the effectiveness of assimilation.

**Keywords:** intellectual personality, upbringing, non-standard thinking collaboration, workshop, critical thinking, primary education, students, skills, assessment, approach, simulation, feedback in the team, modern educational environment, approach.

**Kirish.** Raqamlashgan bugungi dunyoda ta'lim sohasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani, bu borada ulkan islohotlar olib borilayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda ta'lim, fan, madaniyat, san'atning rivojlanishiga keng yo'l ochib berilgan. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limdan toki oliy ta'limning yuksalishiga keng imkoniyatlar ochildi va yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashni jahon andozalariga yaqinlashtirishga kirishildi. Ta'lim

tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular maktab ta'limi faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tishi, ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilishida namoyon bo'lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Jahon ta'lim muassasalari tajribalarini o'rganishlarimizda iqtidorli bolalarni aniqlash, ularda ilmiy

tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilayotganligiga guvoh bo'ldik. Yevropa davlatlari, Rossiya, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreyada raqamli iqtisodiyot sharoitida texnologik va iqtisodiy innovatsiyalarning birligini ta'minlash, ta'lim muassasalarida ilmiy pedagogik muhitni yaratish orqali o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmaga ega bo'lishligini rivojlantirish, jamoada novatorligini shakllantirish, kreativ fikrlashini oshirish, ijodkorlik muhitini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4 K" modeli asosida tayyorlandi. "4 K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvlar asosida atroflicha boyitilgan. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'prok e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Bugungi kunda ta'lim amaliyotidagi yangi tajribalar bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga, jamoada hamkorlikda ishlashga ko'proq ahamiyat beriladi[5]. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu taraqqiyot strategiyasi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, 4 ta asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi. Jumladan, Kollaborativ yondashuv - bu tizimda yaratilgan darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi; Kommunikativ yondashuv - ta'limda o'quvchi yoshlar va talabalar o'rtasidagi muloqotni rag'batlantirish, o'z fikrlarini ochiq ifodalash va shaxslar bilan samarali aloqada bo'lishni ta'kidlaydi. O'zaro muloqot orqali o'quvchi yoshlar va talabalar o'z bilimlarini shakllantiradi. Bu yondashuvni qo'llagan olimlardan biri, Vygotsky bo'lib, uning "sotsial o'zgarish" nazariyasi ta'limda o'zaro muloqot va kooperatsiyani o'rganadi; Kreativ yondashuv - ta'lim oluvchilarga yangi g'oyalar va yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bu yondashuvning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlardan biri H.Gardner bo'lib, u o'zining "ko'p qobiliyat" nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya, o'quvchilarning har xil

o'qish va o'rganish usullarini ishlab chiqishda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi; Kritik fikrlash - kritik fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil ravishda tahlil qilish va baholashga o'rgatadi. Bu yondashuvni qo'llagan olimlardan biri, John Dewey bo'lib, u ta'limda tajriba va tahlil qilishning ahamiyatini ta'kidlagan va kritik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan usullarni ishlab chiqqan.

Bugungi kunda ushbu yondashuvlar boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab samarali tarzda qo'llanmoqda va pedagoglar o'z faoliyatida bu yondashuvlarni amalda ishlatish orqali o'quvchilarning ko'nikmalarini yuksak darajada rivojlantirishga erishmoqda[4]. Yuqoridagi 4 ta yondashuv bir-biriga bog'liq bo'lib, o'quvchilar faqat akademik bilimlarni emas, balki jamiyatda har bir sohada muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham o'rganadilar.

**Natijalar va muhokama.** Ta'lim sifatini yanada yaxshilash ko'p jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, intellektual darajasini ko'tarish, umumiy tarzda esa uning kasbiy kompetensiyalari hamda kompetentligini yuksaltirish kabi masalalarning yechimiga ham bog'liqdir[2]. Aytish kerakki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalarning yechimini bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan boshlang'ich ta'lim bosqichida amalga oshiramiz. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini ta'minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo'lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi[6]. Buning uchun har bir fanning mazmuniga kirgan mavzular yetakchi mutaxassis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Hozirgi vaqtda bizning ishimizga taklif etilayotgan o'quv dasturlariga ijodiy yondashish, shuningdek, o'quvchilar salohiyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur. Raqamli texnologiyalar davrida uzluksiz ta'lim tizimimizda o'quvchilarning individual xususiyatlari, ularning qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olinishi kerak. Mustaqil ijodiy fikrlaydigan iqtidorli o'quvchi nafaqat ko'rish, balki unda o'ziga ishonishga, o'z ahamiyatini



anglashga, qiziq savollarga mustaqil ravishda javob berishga, o'zini - o'zi anglash jarayoniga qo'shilishga yordam berishi kerak[7].

Yu.M.Asadovning fikricha esa, kreativ salohiyatning eng qimmatli xususiyati uning innovatsiyalar sohasidagi yuksak rolidir. Innovatsiya, asosan, inson aql-zakovatining mahsuli bo'lgan intellektual qator sifatida, kreativ salohiyatdan foydalanishning eng tizimli va ko'rinadigan natijasidir. Shunga ko'ra ilmiy va texnologik taraqqiyotning rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi yangilikdir [8].

V.Karimova, Z.Nishonovanning "Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsining hissiy irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish" maqolasida mustaqil ijodiy fikrlashni psixologik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Yoshlarga mustaqil ijodiy fikrlashni o'rgatilsa, ular kelajakda o'z oldilaridagi muammolarni ijodiy hal qilishda qiynalmaydilar. Mustaqillikni tarbiyalash – bu faqat pedagogik emas, balki bir vaqtning o'zida ijtimoiy vazifa hamdir. Mustaqillik insonning o'z xatti-harakati uchun javobgarlik bilan ham uzviy bog'liq va shaxs ijodiy faoliyatining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Mualliflar o'z maqolalarida mustaqil ijodiy fikrlashni to'liq tahlil qiladilar.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limdagi barcha umumta'lim fanlarining mazmunidan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkin, o'quvchilarda o'zgacha innovatsion yondashuv, kreativ fikrlar, o'zini muntazam tahlil qilish, mustaqil fikrlarini bayon qilish ko'nikmalari ham shakllantiriladi[1]. Yuqoridagi mazmunda vazifalardan kelib chiqib, tadqiqot ishimiz muammosini umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini nostandart fikrlashga o'rgatishda 4 K yondashuvdan foydalanish deb tanladik. Tadqiqot maqsadimizga xos bo'lgan va amaliyotga tatbiq etib tahliliy ma'lumotlar olgan quyidagi metodikalarimizni keltirib o'tamiz:

**Guruh ishlari.** Guruhlarda ishlashda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, ma'lum bir mavzu yoki muammo bo'yicha ishlaydilar. Bu metod o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, o'zaro fikr almashish va birgalikda muammoli vaziyatlarga yechim topishga yordam beradi;

**Jamoaviy loyihalar.** O'quvchilarga birgalikda loyihalarni bajarish vazifasi beriladi, masalan, taqdimotlar yaratish yoki ijodiy ishlanmalar. Har bir guruh o'z loyiha ishini taqdim etadi, bu esa ijodiy fikrlash va jamoa ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Rollarni taqsimlash.** Har bir o'quvchiga guruh ichida aniq bir rol beriladi, masalan, lider,

tuzuvchi, tahlilchi yoki taqdimotchi, dizayner. Bu metod o'quvchilarda mas'uliyat hissini oshiradi va ularning shaxsiy intellektual jihatlarini ochib beradi.

**Ko'nikmalar boshqaruvi.** O'quvchilarga ijtimoiy real hayotdagi masalalar yoki muammolarni hal qilish topshirig'i beriladi. Guruhlar bu masalalar yoki muammolarni birgalikda jamoada tahlil qilib, kreativ yechim izlashga harakat qiladilar.

**Simulyatsiya** (biror real voqea yoki vaziyatni sun'iy yaratish, odatda o'rganish maqsadida) va rolli o'yinlar o'ynash. O'quvchilar turli rollarga kirib, vaziyatlarni simulyatsiya qiladilar. Bu metod ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[3].

**Teskari aloqa va baholash.** O'quvchilar o'zaro faoliyat xususiyatlari va taqdimot yo'nalishlari, mustaqil fikrlash darajalariga qarab bir-birlarini baholaydilar, fikr va mulohazalarni taqdim etadilar. Bu metod o'quvchilarning teskari aloqa olish va o'zaro konstruktiv tanqidni (shaxslarning bir-biriga takliflar berish, kamchiliklarni ko'rsatish va o'zgarishlarni yaxshilash uchun amalga oshiriladigan muhokamasi yoki baholash jarayoni) qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'zini baholash. O'quvchilar o'z ishlarini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularning o'z-o'zini tahlil qilish va o'zgarishlarni ko'rish ko'nikmalarini oshiradi.

**Aqliy hujum (Brainstorming- idea, g'oya to'plash).** Guruh a'zolari ma'lum bir mavzu yoki muammo bo'yicha fikrlar va g'oyalarni yig'adilar. Bu metod kreativ fikrlashni rivojlantiradi va yangi g'oyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

**Guruh muammolarini hal qilish (muvaffaqiyatli tashabbuslar).** O'quvchilar guruh ichida muammolarni hal qilishga yoki yangi tashabbuslar yaratishga harakat qiladilar. Bu metod esa o'quvchilarga muammolarni hal qilish va loyiha boshqaruvi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Tadbirlar va workshoplar (mahorat darsi yoki seminar).** Guruhlar o'z faoliyatlarini tashkil etish va boshqa guruhlar bilan tajriba almashish imkoniyatini yaratish. Shuningdek, workshoplar interaktiv o'quv faoliyati ham bo'lib, unda qatnashchilar amaliy mashg'ulotlar, muhokamalar orqali ma'lum bir mavzuda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Workshoplar ko'pincha kichik guruhlarda o'tkaziladi va qatnashchilar o'zlarining tajribalarini baham ko'rish, yangi fikrlar va yechimlar topish, muammolarni birgalikda hal qilish uchun bir joyga to'planadilar. Bu metod tadqiqot tajribasini

o'tkazishda guruhlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish va hamkorlikni kuchaytirishda eng samarali xizmat qiladi.

Umuman olganda, bu kabi metod va metodikalar boshlang'ich ta'limda 4K yondashuvni qo'llashning samarali usullari kombinatsiyasi bo'lib, o'quvchilarning akademik va shaxsiy faoliyatlari rivojlanishiga yordam beradi. Maktab pedagoglari ushbu samarali metodlarni sinfda qo'llash orqali o'quvchilarning hamkorlik, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlay olishlik ko'nikmalarini oshirishlari mumkin.

**Xulosa.** Bugungi kunda yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston ta'lim tizimida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, AQSH, Finlandiya, Estoniya kabi ilg'or ta'lim tizimiga ega mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. Xalqaro baholash dasturlari tatbiqi doirasida o'tkazilgan reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limi ham o'quvchilarda 4 K yondashuvni o'z ichiga olgan muloqot, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berishgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda[9]. Ayni shu yo'nalishdagi ta'lim shakllarini joriy qilishdan maqsadimiz ham yuksak samarador natijalarga erishadigan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Bu boradagi izlanishlarimiz ham tadqiqotlarimiz jarayonida o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### RO'YXATI:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste'dod, 2008. - 180 b.
2. Jumayev M.E. O'quv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini tarbiyalash: Ped. fan. nom. ... diss.: - T.: 1999. –B.137.
3. Maxmudova D.M. Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasi: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.- Chirchiq, 2021. - 200 b.
4. Pichurin S.S. "Yosh o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi". Boshlang'ich maktab plyus oldin va keyin.–2004 yil 51-53-betlar
5. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan

dok. diss. -T., 2005.- 391 b.

6. Najmiddinova G.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: ped. fan. nom. dis. -T., 2006. - 159 b.

7. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? -T.: Pedagogika va psixologiya ilmiy-ommabop nashri, 2000. -B. 36.

8. Asadov Yu.M. Individualno-psixologicheskie osobennosti uchitelya kak faktor razvitiya professionalizma: Avtoref. dis. kand. psixol. nauk. - Tashkent: «NUUZ», 2007. - 25 s

9. Eshboyeva S.Q Educational principles of teaching primary class students to communicative - creative thinking in a modern educational environment. International journal of artificial intelligence.-2024, <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/1274>